



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI
QO‘MITASINING
BUYRUG‘I**

2024 yil. “ 8 ” 01

№ 4-F

Toshkent shahri

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
xarid komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita) xarid komissiyasi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Qo‘mitasining xarid komissiyasi tarkibi mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.
2. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Qo‘mitaning “Xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqida” 2023-yil 16-iyundagi 151-F-son buyrug‘i 1-bandi va 2023-yil 14-avgustdagi 251-F-sonli buyrug‘ining 1-2-bandlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Ushbu buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Rais v.v.b.

B. Kurbanov



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash
vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik
osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining
2024-yil 08 -yanvardagi 7-F -son
buyrug'iga
ilova

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining
xarid komissiyasi

TARKIBI*

1.	Raisning birinchi o'rinbosari, <i>komissiya raisi</i>	-	N. Atabekov
2.	Rais o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>	-	Q. Hayitov
<i>Komissiya a'zolari</i>			
3.	Davlat xizmatlarini ko'rsatish boshqarmasi boshlig'i v.b.	-	O. Yo'ldoshev
4.	Milliy referens laboratoriyasi boshlig'i v.v.b	-	M. Shamsutdinova
5.	Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i	-	S. Xurramov
6.	Investitsiyalar va moddiy-texnika bazani rivojlantirish bo'limi boshlig'i	-	A. Norbekov
7.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i	-	E. Danaev
8.	Sanitariya-epidemiologik xulosa berishni rasmiylashtirish bo'limi hisobchisi	-	B. Bashbekov
9.	Xo'jalik bo'limi mudiri	-	F. Toshmamatov
<i>Komissiya kotibi</i>			
	Milliy referens laboratoriyasi hisobchisi	-	M. To'ychiyev

**Izoh:*

Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda yoki egallab turgan lavozimidan ozod etilganda, ularning o'rniga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifa va vakolatlarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Istisno tariqasida, zarurat paydo bo'lganda, Komissiya tarkibiga Qo'mita raisining buyrug'iga ko'ra tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.